

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SudiptaMaiti, MayurVaishnav, LajariIngale, PiyushaSuryawanshi, *ATM robbery prevention using advanced security, International Research Journal of Engineering and Technology (IRJET), Volume: 03 Issue: 02, Feb-2016.*
2. Abrayeva Mahliyo Olimjon qizi “Moliyaviy sohani qamrab olayotgan FinTech” “Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya” 2023-yil 23-noyabr, Toshkent. doi/10.5281/z.enodo.10157160. 294-298b.
3. KanchanP.Borade, Rutujabagul, Vidyasalunkhe, *Design and implementation of security based ATM theft monitoring system, JETIR (ISSN-2349-5162), Volume 4, Issue 03, March 2017.*
4. Ying Bai, Zvi S. Roth. “Classical and Modern Controls with Microcontrollers”, Springer Science and Business Media LLC, 2019.

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA
BANK KREDITLARINING ROLI VA AHAMIYATI**

Baymanova Mavlyuda Djuraevna
Angren universiteti katta o‘qituvchisi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiyot xo‘jalik tizimining muhim tarkibiy elementlaridan biri bo‘lib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu sohani rivojlantirish orqali aholining ish bilan bandligini ta‘minlash, ichki bozorni iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirish hamda yalpi ichki mahsulotni, valyuta tushumlarini, aholi daromadlarini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash kabi ijobiy natijalarga erishiladi. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning YAIM dagi ulushi 50-60 foizni tashkil qiladi, mehnatga layoqatli aholining 80 foizdan ortig‘i shu sohada faoliyat yuritadi.

Ma‘lumki, tadbirkorlikning rivojlanishi bir qator sharoitlarning mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Tadbirkorlik subyektlarining mustaqilligini belgilaydigan huquq va erkinliklarning ta‘minlanishi, yetarli moliyaviy manbalarga, yaxshi ma‘lumot va malakali tayyorgarlikka ega bo‘lish, umumiy tijorat qonunchiligi, soliq bo‘yicha imtiyozlarning mavjud bo‘lishi kabilar tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim shart-sharoitlari hisoblanadi.

Iqtisodiy salohiyat nuqtai nazaridan yirik biznesga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning imkoniyatlari nisbatan cheklangan bo‘ladi. U yirik korxonalar singari kuchli moddiy-texnika bazasiga, barqaror resurslar manbaiga, yillar davomida shakllangan sotish bozorlariga ega emas. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bunday jihatlari uni davlat tomonidan doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlashni taqozo qiladi. Shunga ko‘ra barcha mamlakatlarda xususiy tadbirkorlikning hayotiy faoliyati barqarorligini ta‘minlovchi samarali dastak va mexanizmlar yaratiladi.

Mamlakatimizda ham iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil etib bandlik muammosini hal etish hamda aholining daromadlari va

farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e‘tibor qaratildi. Ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi, zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratib berildi. Kichik biznes vakillari doimo rag‘batlantirilib kelinmoqda, ularning ishbilarmonlik tashabbuslari to‘liq qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu ishlarning natijasida respublikamizda tadbirkorlik jadal rivojlanib bormoqda. Birgina 2022 yilning o‘zida kichik tadbirkorlik subyektlari soni 40 mingtaga, o‘rta tadbirkorlar soni 2 mingtaga, yirik korxonalar soni esa 400 taga ko‘paydi. Berilgan yengilliklardan foydalanib, bir yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshdi [1]. Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023 yilning 1-dekabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni 428 396 tani tashkil etgan. Shundan 424 695 tasi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan [2].

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni ko‘payib borishi natijasida ushbu sohaning YAIMdagi ulushi ham yildan-yilga oshib bormoqda. Agar bu ko‘rsatkich 2000 yilda 31% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib 54,9% ga yetdi.

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida yetarli moliyaviy manbalarga ega bo‘lish muhim hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi uchun zarur moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashda bank kreditlarning o‘rni beqiyosdir. So‘nggi yillarda iqtisodiyotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida mazkur sohaga tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar va ko‘rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi yildan-yilga o‘sib bormoqda. Jumladan, 2022 yilda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun 545 mingdan ortiq loyihalarga jami 122 trln so‘m miqdorida yoki 2021 yilga nisbatan 1,3 barobarga ko‘p kredit mablag‘lari ajratildi. 2022 yilda xorijiy kredit liniyalari mablag‘lari hisobidan tadbirkorlik subyektlarining qariyb 13,1 mingdan ortiq loyihasini moliyalashtirish uchun 2,1 mlrd dollar miqdorida, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri (davlat kafolatisiz) jalb qilingan mablag‘lar hisobidan 1,8 mlrd dollar (jami xorijiy kredit liniyalarining 86 foizi) miqdorida kreditlar yo‘naltirildi. 2015 yilda kichik biznes sohasiga ajratilgan kreditlar 12,5 trln so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib qariyb 5,6 baravarga oshdi. 2022 yilda kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadlari uchun 504 mingdan ortiq loyihalarga jami 69,8 trln so‘m miqdorida kredit mablag‘lari ajratildi [3].

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida imtiyozli kreditlar yagona elektron onlayn platforma (oilakredit.uz) orqali to‘liq raqamlashgan holda ajratiladi. Kreditlar platformada yaratilgan “marketpleys” tizimi yordamida fuqaro tomonidan mustaqil tanlangan ta‘minotchi bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 2018-2022-yillarda jami 34,1 trln so‘mdan ko‘p miqdorda imtiyozli kreditlar ajratildi, natijada respublika bo‘yicha o‘rta hisobda har ming xonadonning 196 tasi ushbu dasturlar doirasida kredit olib qo‘shimcha daromad olish imkoniyatlariga ega bo‘ldi. 2022 yilda esa Dasturlar doirasida tijorat banklari tomonidan 424 mingdan ortiq loyihalariga jami 9,9 trln so‘mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi. [4].

2023 yildan kichik biznes subyektlari tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish, xususan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashning yangi bosqichi boshlandi. Respublikamiz Prezidentining 2023 yil 31-yanvardagi PQ-39-sonli “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 19-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 161-sonli qarorlari qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu Qarorga muvofiq 2023 yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun kamida 13 trillion so‘m yo‘naltirilishi belgilandi va ushbu resurslarning hududlar kesimidagi maqsadli parametrlari tasdiqlandi, kreditlarni yillik 14 foiz stavkada ajratish tartibi saqlab qolindi, “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan aholi tomorqalaridan samarali foydalanish uchun mikrokreditlar miqdori 3 mln so‘mgacha oshirildi [5].

Respublikamiz Prezidentining 2023 yil 14-sentyabrda “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-306-sonli Qaroriga asosan 2023 yil 1-oktyabrdan “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturining amalga oshirilishi boshlandi. Mazkur Qarorda 2023-2026-yillarda Dasturni amalga oshirish uchun davlat mablag‘lari hisobidan 6 mlrd so‘m, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan esa 1,2 mlrd dollar miqdorida mablag‘ yo‘naltirilishi, kichik biznes subyektlariga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag‘lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so‘mgacha kreditlar ajratilishi, bunda 100 million so‘mgacha kreditlarni garovsiz, 150 million so‘mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi [6].

Yuqorida fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, hukumatimiz tomonidan yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ulkan e‘tibor tufayli bu soha yildan-yilga jadal rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali uning YAIMdagi ulushini oshirishda kreditlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznesni moliyalashtirish mehnatga layoqatli, iqtidorli aholi qatlamini ishga jalb etish orqali o‘z g‘oya va yangiliklarini ro‘yobga chiqarish bilan daromad olish manbalarini kengaytirish, turmush farovonligini yaxshilash, aholini kambag‘allikdan xalos etish, iqtisodiyotda faol va samarali raqobat muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. “Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish – ustuvor vazifamizdir” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi, <https://president.uz>.
2. <https://biznesombudsman.uz/uz/news/738>
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yildagi faoliyati to‘g‘risida hisoboti. <https://cbu.uz/oz/publications/annual-report/>
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yildagi faoliyati to‘g‘risida hisoboti. <https://cbu.uz/oz/publications/annual-report/>
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 161-sonli qarori, 19-aprel 2023-yil, <https://lex.uz/docs/6438656>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-306-sonli Qarori, 14-sentyabr 2023-yil, <https://lex.uz/docs/6609110>.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Самиева Мафтуна

Ташкентский государственный экономический университет ассистент кафедры «Цифровая экономика и информационные технологии»

беспрецедентным образом изменила нашу жизнь и общество[1], принесла с собой как некоторые проблемы, так и огромные возможности. Развитие цифровой экономики является одним из приоритетов для таких ведущих стран, как США, Великобритания, Германия, Южная Корея и Сингапур. В последние годы происходит новая волна развития бизнеса и деятельности в социальной сфере с помощью цифровых технологий нового поколения – искусственного интеллекта, робототехники и технологий беспроводной связи. Новые технологии могут внести существенный вклад в реализацию Целей устойчивого развития, но мы можем не получить ожидаемых положительных результатов. Если мы хотим реализовать весь социальный и экономический потенциал цифровых технологий, нам необходимо срочно развивать сотрудничество между странами, избегая непредвиденных последствий. Развитию этого сектора в нашей стране уделяется особое внимание. В своем обращении к Олий Мажлису от 28 декабря 2018 года глава нашего государства Ш.Мирзиёев предложил реализовать программу «Цифровой Узбекистан – 2030» до 2030 года[2]